JAMIYATDA IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA YOSHLAR FAOLLIGINING AHAMIYATI

Axadjonova Gulruxsor Toxirjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash omillari, ayniqsa yoshlar ijtimoiy faolligining o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish jarayonida yoshlarning ishtiroki, ularning jamiyatdagi roli hamda davlat siyosati bilan uyg‘unligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: barqarorlik, ijtimoiy barqarorlik, yoshlar faolligi, fuqarolik jamiyati, birdamlik, tinchlik, taraqqiyot.

Bugungi globallashuv jarayonlari insoniyat taraqqiyotida yangi imkoniyatlar yaratib, ayniqsa yosh avlod uchun keng istiqbollarni ochmoqda. Shu nuqtai nazardan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlarining qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqsadlar jamiyatda farovonlikni ta’minlash, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash va barqaror taraqqiyotga erishishga xizmat qiladi.[2]

O‘zbekistonda ham barqaror rivojlanish tamoyillari asosida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi hamda “O‘zbekiston–2030” strategiyasi ushbu yo‘nalishda muhim dasturiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu strategiyalarda yoshlarning jamiyatdagi o‘rni va faolligini oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.[1] biologik xilma-xillikning yo‘qolishi va tinchlik kabi global muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Barqarorlik (ijtimoiy, ma’naviy) – jamiyatda hukm surayotgan tinch-totuvlik, birdamlikni asrab-avaylash va mustahkamlashga asoslangan tinch shart-sharoitning mavjudligi; ijtimoiy qatlamlar, guruh va siyosiy partiyalar o‘rtasidagi hamjihatlik; davlat, jamoat tashkilotlari, fuqarolar o‘rtasidagi mustahkam hamkorlik qaror topganini anglatadigan tushuncha. Barqaror rivojlanish maqsadlari– bu Birlashgan Millatlar Tashkilotining dunyoda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vaziyatni har tomonlama yaxshilash orqali butun insoniyatning hayot tarzini yaxshilash va turmush farovonligini oshirishga, adolatli va barqaror jamiyat qurishga qaratilgan global chaqirig’idir. Barqaror rivojlanish sohasidagi turli mamlakatlarning tajribasi juda katta farq qilganligi sababli, 2030 yil kun tartibining barcha maqsadlari va tegishli vazifalari umumiy, universal shaklda shakllantirilgan va qoida tariqasida aniq miqdoriy maqsadlar mavjud emas. Har bir mamlakat BRMni lokalizatsiya qilishi, ya’ni 2030 yilga mo‘ljallangan kun tartibidagi 169 ta vazifadan o‘zining rivojlanish ustuvorligi va moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, milliy rivojlanish maqsadlarini ishlab chiqishi belgilangan. Mamlakatlar ushbu maqsadlarni o‘zining milliy sharoitlariga moslashtirishi, har bir vazifaga tegishli statistik ko’rsatkichlar uchun miqdoriy ko’rsatkichlarni aniqlashi hamda vazifalar va aniq miqdoriy ko’rsatkichlarni milliy strategik hujjatlarda belgilashi kerak.

Barqaror rivojlanish – kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga ziyon yetkazmagan holda, hozirgi avlodning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan insoniyat taraqqiyotining samarali yo‘nalishidir. Maqsad – yashash sharoitlari va resurslar inson ehtiyojlarini qondirgan holda, sayyoramizning yaxlitligini xavf ostiga qo‘ymasdan, jamiyat yaratishdir. Iqtisodiyot, atrof-muhit va ijtimoiy farovonlik ehtiyojlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash barqaror rivojlanishning asosiy maqsadi hisoblanadi. 1987-yildagi Brundtland hisoboti barqaror rivojlanish tushunchasining keng tarqalishiga hissa qo‘shdi.Barqaror rivojlanish tushunchasi me’yoriy konsepsiya hisoblangan barqarorlik g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. UNESCO ikkala tushuncha o‘rtasidagi farqni quyidagicha tushuntirgan: „Barqarorlik ko‘pincha uzoq muddatli maqsad sifatida qaraladi (ya’ni, yanada barqaror dunyo), barqaror rivojlanish esa shu maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan turli jarayonlar va yo‘llarni ifodalaydi“[4].

1992-yildagi Rio-deoJaneyroda o‘tkazilgan Yer sammitidan boshlangan Rio jarayoni barqaror rivojlanish tushunchasini xalqaro darajaga olib chiqdi. Barqaror rivojlanish – bu barqaror rivojlanish maqsadlarining asosiy g‘oyasi hisoblanadi· 2030-yilga mo‘ljallangan ushbu global maqsadlar 2015-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan. Maqsadlar qashshoqlik, iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi va tinchlik kabi global muammolarni hal qilishga qaratilgan. Barqarorlik (ijtimoiy, ma’naviy) – jamiyatda hukm surayotgan tinch-totuvlik, birdamlikni asrab-avaylash va mustahkamlashga asoslangan tinch shart-sharoitning mavjudligi; ijtimoiy qatlamlar, guruh va siyosiy partiyalar o‘rtasidagi hamjihatlik; davlat, jamoat tashkilotlari, fuqarolar o‘rtasidagi mustahkam hamkorlik qaror topganini anglatadigan tushuncha. Barqaror rivojlanish maqsadlari– bu Birlashgan Millatlar Tashkilotining dunyoda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vaziyatni har tomonlama yaxshilash orqali butun insoniyatning hayot tarzini yaxshilash va turmush farovonligini oshirishga, adolatli va barqaror jamiyat qurishga qaratilgan global chaqirig’idir. Barqaror rivojlanish sohasidagi turli mamlakatlarning tajribasi juda katta farq qilganligi sababli, 2030 yil kun tartibining barcha maqsadlari va tegishli vazifalari umumiy, universal shaklda shakllantirilgan va qoida tariqasida aniq miqdoriy maqsadlar mavjud emas. Har bir mamlakat BRMni lokalizatsiya qilishi, ya’ni 2030 yilga mo‘ljallangan kun tartibidagi 169 ta vazifadan o‘zining rivojlanish ustuvorligi va moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, milliy rivojlanish maqsadlarini ishlab chiqishi belgilangan. Mamlakatlar ushbu maqsadlarni o‘zining milliy sharoitlariga moslashtirishi, har bir vazifaga tegishli statistik ko’rsatkichlar uchun miqdoriy ko’rsatkichlarni aniqlashi hamda vazifalar va aniq miqdoriy ko’rsatkichlarni milliy strategik hujjatlarda belgilashi kerak.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan bog‘liq ba’zi muammolar mavjud. Ba’zi olimlar uni oksimoron deb ataydilar. Chunki, ularning fikricha, rivojlanish barqarorlik xususiyatiga emas. Boshqa tahlilchilar esa hozirgacha erishilgan yutuqlarni yetarli deb bilmaydilar. Olimlarning ta’kidlashicha, barqaror rivojlanish tushunchasi ochiq talqinga ega bo‘lib, ko‘pincha noaniq va nomuvofiq deb tanqid qilinadi, shu sababli uni osonlikcha o‘zlashtirish mumkin.Ijtimoiy barqarorlik — bu jamiyatda tinchlik, adolat, tenglik va o‘zaro ishonch muhitining qaror topishidir. Bunday muhitni shakllantirishda yoshlar muhim ijtimoiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Yoshlarning ijtimoiy faolligi deganda ularning jamiyat hayotida faol ishtiroki, tashabbus ko‘rsatishi, fuqarolik pozitsiyasinibildira olishtushuniladi.

Yoshlar ijtimoiy faolligining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- fuqarolik jamiyati institutlarida ishtirok etish;
- ijtimoiy loyihalar va tashabbuslarni ilgari surish;
- volontyorlik faoliyatida qatnashish;
- jamiyatdagi muammolarga befarq bo‘lmaslik.

Aynan shu jihatlar jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Chunki faol yoshlar — bu ongli, mas’uliyatli va tashabbuskor fuqarolar demakdir. Shuningdek, diniy qadriyatlarning to‘g‘ri anglanishi ham ijtimoiy barqarorlikning muhim omillaridan biridir. Dinni noto‘g‘ri talqin qilish jamiyatda turli nizolar va tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Shu bois yoshlar orasida diniy savodxonlikni oshirish, ularni turli yot g‘oyalardan himoya qilish muhim ahamiyatga ega. Jamiyat hayotida barqarorlik quyidagi natijalarga olib keladi:

- tinchlik va osoyishtalikning mustahkamlanishi;
- iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning jadallashuvi;
- fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchining ortishi.

Aksincha, beqarorlik esa ijtimoiy inqirozlar, nizolar va taraqqiyotning sekinlashuviga sabab bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda yoshlarning ijtimoiy faolligi hal qiluvchi omillardan biridir. Yoshlar jamiyat hayotida faol ishtirok etib, o‘z bilim va salohiyatini namoyon etsa, mamlakat taraqqiyoti yanada jadallashadi. Shu bois yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning tashabbuslarini rag‘batlantirish va ijtimoiy faolligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. *Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.
5. UNDP. *Human Development Report.* – New York, turli yillar.
6. UNICEF. *The State of the World’s Children*. – New York, turli yillar.
7. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
8. G‘ulomov S.S. *Ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot omillari*. – Toshkent, 2019.
9. Abdurahmonov Q.X. *Yoshlar siyosati va ijtimoiy faollik.* – Toshkent, 2020.